

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING TRANSFORMATSIYASI

Turdiyev Muhammad Abdullayevich

Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi Tergov boshqarmasi boshlig'i
o'rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi raqamli davrda yuz berayotgan texnologik va axborot o'zgarishlarining inson axloqiy qadriyatlariga, xulq-atvor madaniyatiga hamda yoshlar ongiga ko'rsatgan falsafiy ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiya vositalari va virtual muhitning kengayishi natijasida axloqiy me'yorlarning yangicha talqinga ega bo'layotgani, shaxsiy mas'uliyat va ma'naviy barqarorlikning zaiflashuvi kabi jarayonlar ochib beriladi. Shuningdek, shaxs erkinligi bilan ma'naviy burch o'rtasidagi muvozanatni saqlash masalasi, milliy qadriyatlar negizida "raqamli axloq" konsepsiyasini shakllantirish zaruriyati asoslanadi. Tadqiqotda axloq falsafasi, axborot madaniyati va raqamli etika o'rtasidagi uzviy bog'liqlik falsafiy yondashuv asosida yoritilib, yosh avlodda ma'naviy immunitetni mustahkamlash zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, axloqiy qadriyatlar, odob me'yorlari, virtual muhit, raqamli madaniyat, yoshlar ongida axloq, internet, ma'naviyat.

Zamonaviy globallashuv va texnologik taraqqiyot inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Raqamli axborot makonining kengayishi inson tafakkuri, madaniy qarashlari va axloqiy dunyoqarashini o'zgartirmoqda. Natijada, an'anaviy odob-axloq me'yorlari o'zining barqaror holatini yo'qotib, yangi, ko'pincha noaniq mezonlar bilan almashtirilmoqda. Shu bois, raqamli jamiyat sharoitida axloqiy qadriyatlarning o'zgarishini o'rganish falsafa va sotsiologiya fanlari kesishgan muhim masalaga aylangan [1].

Virtual makon bugun inson tomonidan yaratilgan texnik va axborot muhitining eng yirik shakllaridan biri sifatida shakllandi. U nafaqat muloqot vositasi, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir va o'zini namoyon etish maydonidir. L.V. Baeva o'z tadqiqotlarida zamonaviy axborot asrida geonistik qadriyatlar, ya'ni lazzat va foyda tamoyillari inson ongida ustunlik qila boshlaganini qayd etadi [2]. Shu sababli, inson o'zini erkin his qilayotgan bo'lsa-da, aslida axloqiy mas'uliyatdan tobora uzoqlashmoqda.

Virtual dunyoda erkinlik va anonimlik unsurlari birgalikda mavjud bo'lib, bu holat shaxsiy mas'uliyatni susaytiradi. Ayniqsa, yoshlar orasida soxta identifikatsiya, g'arbona madaniy andozalarga taqlid qilish va "ommaviy madaniyat" elementlarini qabul qilish holatlari keng tarqalmoqda. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev shunday degan edi: "Agar ommaviy madaniyat xavfi faqat chetdan kirib keladi, desak, yanglishamiz. Bu tahdid bizning ichki muhitimizda ham ildiz otmoqda" [3].

Virtual reallikning falsafiy mohiyati inson tomonidan sun'iy ravishda yaratilgan, ammo sezgi organlari orqali real tarzda qabul qilinadigan muhit sifatida namoyon bo'ladi. M.N. Normamatova bu haqda "XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab virtuallik konsepsiyasi bir necha ilmiy sohalarda – fizika, psixologiya, san'atshunoslik va informatika yo'nalishlarida shakllangan" deb ta'kidlaydi [4]. Biroq bu muhitda javobgarlik va real ijtimoiy nazorat zaiflashgani sababli axloqiy nisbiylik kuchaymoqda, yoshlar ongida esa ma'naviy befarqlik ortmoqda.

Professor N. Shermuhamedova "virtuallik faqat maqsadli faoliyat bilan uyg'unlashgandagina ijobiy natija beradi, aks holda u insonni mazmunsiz tajribalar

sari yetaklaydi”, deb yozadi [5]. Bu fikr raqamli faoliyatda insonning maqsadli, ongli harakatini saqlash muhimligini ko‘rsatadi.

Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligi masalasi ham axloqiy muammoning ajralmas qismi hisoblanadi. S. Rastorguevning ta’kidlashicha, ko‘plab mamlakatlar o‘z fuqarolarining axborot makonini begona mafkuraviy bosimlardan himoya qilish maqsadida maxsus mexanizmlar joriy etmoqda [6]. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda yoshlarning axborot madaniyatini oshirish, internet muloqotida etik me’yorlarni shakllantirish, milliy ma’naviyat asosida raqamli immunitetni mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi.

E.V. Kovalevskaya fikricha, “kompyuter virtual olamlarini falsafiy konsepsiya sifatida chuqur tushunish jarayoni hali yakuniga yetgani yo‘q” [7]. Shu sababli, raqamli etikani rivojlantirish, virtual mas’uliyatni mustahkamlash va internet madaniyatini ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishi nafaqat falsafiy, balki ijtimoiy va madaniy muammo sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Milliy ma’naviyatni raqamli davr sharoitida saqlab qolish, yoshlar ongida axloqiy immunitetni shakllantirish, raqamli madaniyat va etika tamoyillarini rivojlantirish bugungi O‘zbekiston jamiyatining eng muhim falsafiy yo‘nalishlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bauman Z. *Liquid Modernity* / Z. Bauman. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 240 p.

2. Castells M. *The Rise of the Network Society* / M. Castells. – Oxford: Blackwell, 2010. – 597 p.
3. Баева Л. В. *Ценности в эпоху информационного общества* / Л. В. Баева. – Москва: Логос, 2015. – 232 с.
4. Normamatova M. N. *Virtual reallik va inson* / M. N. Normamatova. – Toshkent: Fan, 2018. – 200 b.
5. Shermuhamedova N. *Falsafa va fan metodologiyasi* / N. Shermuhamedova. – Toshkent: Universitet, 2016. – 312 b.
6. Расторгуев С. А. *Информационная безопасность и информационная война* / С. А. Расторгуев. – Москва: Академия, 2010. – 400 с.
7. Ковалевская Е. В. *Компьютерная виртуальность: теория и практика* / Е. В. Ковалевская. – СПб., 2017. – 256 с.